

2023- yilning yanvar – dekabr oylarida Toshkent viloyatining qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023- yilning yanvar–dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 40 699,5 mlrd. so'mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,1 %ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 38 502,5 mlrd. so'mni (103,8 %), o'rmon xo'jaligi – 1 490,2 mlrd. so'mni (102,9 %), baliqchilik xo'jaligi – 706,8 mlrd. so'mni (135,4 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarkibida Toshkent viloyatining ulushi 9,6 %ni tashkil etdi.



40 699,5

**Toshkent viloyati bo'yicha
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi
mahsulot (xizmat)larining hajmi, mlrd. so'm**



38 502,5

**Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik
va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar**


1 490,2

O'rmon xo'jaligi


706,8

Baliqchilik xo'jaligi

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘shish sur‘ati, %da




Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lari



- O‘rmon xo‘jaligi
- Baliqchilik xo‘jaligi
- Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar
- Dehqonchilik
- Chorvachilik
- Ovchilik va qishloq xo‘jaligi sohasidagi xizmatlar

2023-yilning yanvar–dekabr yakunlariga ko‘ra, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar umumiy hajmining 94,6 %i-dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar, 3,7 %i – o‘rmon xo‘jaligi, 1,7 %i – baliqchilik xo‘jaligi hissasiga to‘g‘ri keladi.


Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi



2023- yilning yanvar–dekabr oylarida, shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Bekobod (4 252,7 mlrd. so‘m), Bo‘stonliq (3 483,3 mlrd. so‘m) va Yangiyo‘l (3 295,9 mlrd. so‘m) tumanlarida qayd etildi. Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Yangiyo‘l (62,9 mlrd. so‘m), Nurafshon shahar (63,4 mlrd. so‘m) va Ohangaron (80,4 mlrd. so‘m) shaharlarini keltirib o‘tish mumkin.

Yuqori o‘sish sur‘atlari Yangiyo‘l shahar (111,8 %), Yangiyo‘l (127,5 %), Bekobod (104,1 %) va Quyi Chirchiq (103,9 %) tumanlarida kuzatildi. Nurafshon shahar (100,3 %), Piskent (100,3 %) va Parkent (100,6 %) tumanlarida esa aksincha o‘sish sur‘atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'sish sur'ati




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari

2023- yilning yanvar–dekabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 37 979,9 mlrd. so'mni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,6 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari hajmi 18 128,2 mlrd. so'mni (103,0 %) hamda chorvachilik mahsulotlari hajmi 19 851,7 mlrd. so'mni (104,3 %) tashkil qildi.


Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi

47,7 %
Dehqonchilik mahsulotlari




52,3 %
Chorvachilik mahsulotlari

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (%)




Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining ulushi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 66,9 % – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 17,6 % – fermer xo'jaliklariga, 15,5 % – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining hududlar bo'yicha xo'jalik toifalari kesimida taqsimlanishi (%)





2023- yilning yanvar–dekabr oylari yakuniga ko'ra yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich O'rta Chirchiq tumanida (27,7 %), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Bekobod shahrida (100,0 %), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Quyichirchiq tumanida (49,9 %) qayd etildi.




Dehqonchilik mahsulotlari

2023- yilning yanvar–dekabr oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 18 128,2 mlrd. soʻmni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 103,0 %ni tashkil etdi. yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 47,7 %ni tashkil qildi.

Donli ekinlar



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xoʻjalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xoʻjaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xoʻjaliklari
- Qishloq xoʻjaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan 641,7 ming tonna don va dukkakli don (2022– yilning mos davriga nisbatan 6,4 %ga koʻp) ishlab chiqarildi. Don va dukkakli don ishlab chiqarish koʻrsatkichlarini xoʻjaliklar toifalari boʻyicha tahlil qilinganda, don ishlab chiqarish umumiy hajmidan 48,7 %i fermer xoʻjaliklari hissasiga toʻgʻri kelishini koʻrsatmoqda.




Toshkent viloyati bo'yicha donli ekinlar yetishtirish hajmi, tonna




Kartoshka


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati



**Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 386,1 ming tonna kartoshka (2022– yilning mos davriga nisbatan 3,5 %ga ko'p) ishlab chiqarildi. Kartoshka ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, kartoshka ishlab chiqarish umumiy hajmidan 76,2 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Toshkent viloyati bo'yicha
kartoshka yetishtirish
hajmi, tonna




Sabzavotlar


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 154,6 ming tonna sabzavotlar (2022- yilning mos davriga nisbatan 4,8 %ga ko'p) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirish umumiy hajmidan 78,5 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Toshkent viloyati bo'yicha sabzavotlar yetishtirish, tonna




Poliz ekinlari


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 70,1 ming tonna poliz (2022- yilning mos davriga nisbatan 7,1 %ga ko'p) ishlab chiqarildi. Poliz ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, poliz ishlab chiqarish umumiy hajmidan 59,3 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Toshkent viloyati bo'yicha **poliz** ekinlari yetishtirish hajmi, tonna




Meva va rezavorlar


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 135,9 ming tonna meva va rezavorlar (2022– yilning mos davriga nisbatan 1,5 %ga ko'p) ishlab chiqarildi. Meva va rezavorlar ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, meva va rezavorlar ishlab chiqarish umumiy hajmidan 61,8 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Toshkent viloyati bo'yicha meva va rezavorlar yetishtirish hajmi, tonna




Uzum


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati



Ishlab chiqarilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023– yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 87,6 ming tonna uzum (2022– yilning mos davriga nisbatan -18,4 %ga kam) ishlab chiqarildi. Uzum ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, uzum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 65,3%i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.



**Toshkent viloyati bo'yicha
uzum yetishtirish
hajmi, tonna**






Chorvachilik mahsulotlari




2023- yilning yanvar–dekabr oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 19 851,7 mlrd. soʻmni yoki 2022- yilning mos davriga nisbatan 104,3%ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 52,3 %ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish boʻyicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam koʻrsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh sonining koʻpayishiga, ichki isteʼmol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan toʻldirishga imkon yaratdi.



2023- yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xoʻjaliklar tomonidan tirik vaznda 305,9 ming tonna goʻsht (2022- yilning mos davriga nisbatan 7,5 %ga koʻp), 1 022,8 ming tonna sut (5,4 %ga koʻp), 1 509,7 mln. dona tuxum (4,8 %ga koʻp) yetishtirildi va 27 124,9 tonna baliq (40,6 %ga koʻp) ovlandi.

Go'sht (tirik vaznda)




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 305,9 ming tonna go'sht (2022- yilning mos davriga nisbatan 7,5 %ga ko'p) yetishtirildi. Go'sht yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil etilganda, go'sht yetishtirish umumiy hajmidan 71,6 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelganini qayd etish zarur.




Toshkent viloyati bo'yicha **go'sht** (tirik vaznda) yetishtirish, tonna




Sut


Hajmi, ming tonna



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalaribo'yicha
taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar





2023- yilning yanvar– dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1 022,8 ming tonna sut (2022- yilning mos davriga nisbatan 5,4 %ga ko'p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko'rsatkichlarini xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 90,9 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.




Toshkent viloyati bo'yicha sut yetishtirish, tonna



Tuxum



Yetishtirilgan mahsulotning xo'jalik toifalaribo'yicha taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 1509,8 mln. dona tuxum (2022- yilning mos davriga nisbatan 4,8 %ga ko'p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko'rsatkichlari xo'jalik toifalari bo'yich tahlil etilganda, tuxum yetishtirish umumiy 65,4%i dehqon (shaxsiyyordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi.




Toshkent viloyati bo'yicha tuxum yetishtirish, ming dona




Baliq


Hajmi, tonna



O'sish sur'ati



Yetishtirilgan mahsulotning
xo'jalik toifalari bo'yicha
taqsimlanishi




- Fermer xo'jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari
- Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2023- yilning yanvar–dekabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 27 124,9 tonna (2022- yilning mos davriga nisbatan 40,6%ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 89,9%i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.



Toshkent viloyati bo'yicha ovlangan baliqlar, tonna





Chorva mollari va parrandalar bosh soni, ming bosh




2024– yilning 1– yanvar holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 9,0 %i fermer xo'jaliklari hissasiga, 85,4 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 5,7 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 30,3 %i fermer xo'jaliklariga, 62,8 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 6,9 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shunga mos ravishda otlarning umumiy sonidan 19,8 %i fermer xo'jaliklariga, 73,9 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 6,3 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 1,9 %i fermer xo'jaliklariga, 55,3 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 42,8 %i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi.


2024- yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 997 mingtaga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 19 ming taga (2,0%) ko‘paydi.

Yirik shoxli qoramollar



**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami yirik shoxli qoramollarning 85,3%i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.





Toshkent viloyati bo'yicha **yirik shoxli** **qoramollarning** umumiy bosh soni, ming bosh




2024- yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, sigirlarning umumiy bosh soni 423 ming taga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda sigirlar bosh soni 1,8 ming taga (0,4 %) ko‘paydi.

Sigirlar




**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, sigirlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami sigirlarning 89,4 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.





Toshkent viloyati bo'yicha sigirlarning umumiy bosh soni, ming bosh




2024- yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 1 089 mingtaga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda qo‘y va echkilar bosh soni 3 mingtaga (0,3 %) ko‘paydi.

Qo‘y va echkilar



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, qo‘y va echkilar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami qo‘y va echkilarning 62,8 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.




Toshkent viloyati bo'yicha qo'y va echkilarning umumiy bosh soni, ming bosh




2024- yilning 1–yanvar holatiga ko‘ra, otlarning umumiy bosh soni 56 494 taga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda otlar bosh soni 203 taga (0,4 %) ko‘paydi.

Otlar



Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1– yanvar holatiga ko‘ra, otlar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami otlarning 76,2 %i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.





Toshkent viloyati bo'yicha **otlarning** umumiy bosh soni, bosh




2024- yilning 1–yanvar holatiga ko‘ra, parrandalarning umumiy bosh soni 16 750 ming taga yetdi.

2022- yilning mos davri bilan solishtirilganda, barcha toifadagi xo‘jaliklarda parrandalar bosh soni 153 ming taga (0,1%) ko‘paydi.

Parrandalar




**Bosh sonining
xo‘jalik toifalari
bo‘yicha taqsimlanishi**




- Fermer xo‘jaliklari
- Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklari
- Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar



2024- yilning 1–yanvar holatiga ko‘ra, parrandalar bosh soni to‘g‘risidagi ma‘lumotlar xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, jami parrandalarning 55,3%i dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga to‘g‘ri kelishi kuzatildi.



Toshkent viloyati bo'yicha parrandalarning umumiy bosh soni, ming bosh



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 71-202-86-69
• 71-203-45-00 (46-10)